

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GIYOSOVA VASILAXON AVAZXON QIZI

**BOLALARGA MUROJAATNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) avtoreferati mundarijasi

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Giyosova Vasilaxon Avazxon qizi

Bolalarga murojaatni ifodalovchi birliklarning lingvokulturologik tadqiqi.....3

Giyosova Vasilaxon Avazxon qizi

Linguocultural study of units expressing address to children.....27

Гиёсова Василахон Авазхон кизи

Лингвокультурологическое исследование единиц обращений к детям.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ.....53

Поалар

Appendixes

Приложения.....55

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

GIYOSOVA VASILAXON AVAZXON QIZI

**BOLALARGA MUROJAATNI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3228 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti www.fdu.uz hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Akbarova Zuxro Akmaljanovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Raupova Laylo Raximovna
filologiya fanlari doktori, professor

Sultonova Shohista Muhammadjanovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 23 may soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-66-02; faks: (99873) 244-44-01; e-mail: info@fdu.uz).

343 Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-71-28).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «2» may kuni tarqatildi.

(2024-yil «2» may dagi 8 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.M.Muminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

M.T.Zokirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.n., professor

A.Mamajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida nutqiy muloqotning asosiy birligi murojaat shakllarining lingvokulturologik yondashuv asosida o'rganilishida mamlakatlararo integratsiya, madaniyatlarning aralashuvi bilan bog'liq tamoyillar ustuvorlik qilmoqda. Ayniqsa, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi nafaqat insonlar, balki madaniyatlararo muloqot jarayonida murojaat birliklarining o'ziga xos o'rni va vazifasini aniqlash, so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarning murojaatlarga ta'siri bilan belgilanadi. Xususan, muloqot vaziyatining muvaffaqiyatli amalga oshirishida murojaat birliklarining to'g'ri tanlanishi til manbalarining milliy o'ziga xosligi va boyligi, rivojlanishi yuzasidan xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bugungi kunda ushbu muammoning turli aspektlarda, jahon miqyosida tadqiq etilishi esa kommunikatsiya jarayonining global xarakterga ega bo'lib borayotganligini ko'rsatayotganligi amaliy ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida murojaat birliklarini turli diskursning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida muloqot ishtirokchilarining yoshi, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, lavozimi, adresat va adresant o'rtasidagi pog'onali munosabatlar, qarindoshlik darajalari kabi masalalarning ifodalanishiga qarab tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Murojaat birliklarining qo'llanilishidagi bunday farqlanish bolalarga nisbatan qo'llaniladigan murojaat birliklarida ham kuzatilib, ularning turli tizimli tillarda kommunikativ-funksional, leksikografik, struktur-semantik, uslubiy-funksional va lingvokulturologik taraflari hamda ularda aksiologik modallikning o'ziga xos tarzda ifodalanishi ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida ham so'nggi yillarda muloqot jarayonining asosiy vositasi hisoblangan murojaat birliklari turli aspektlarda tadqiq etilib, bu borada samarali natijalarga erishildi. Biroq turli tizimli tillarda ilmiy nuqtayi nazardan noaniq va geterogen tabiatli hisoblangan murojaat birliklarining keng o'rganilishi doirasida, jumladan, bolalarga oid murojaat birliklarining til tizimida tutgan o'rni, o'ziga xosligi, tasnifi, lingvokulturologik tabiati, shuningdek, uslubiy xoslanishi va vazifalari tahlili masalasi o'zbek tilshunosligida ham ochiq qolayotganligini alohida ta'kidlash lozim. Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida yuz berayotgan o'zgarishlar natijasi o'laroq turli kishilar jamoasiga tegishli bo'lgan o'ziga xos murojaat birliklarining shakllanib, farqlanib borishi esa ushbu birliklar tadqiqiga alohida e'tibor qaratish kerakligini taqozo etmoqda. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni innovatsion rivojlanishsiz, keng ko'lamlil ilmiy-texnik kooperatsiyasiz va yangi texnologiyalar, ilm-fan va texnika yutuqlarini joriy etmasdan tasavvur qilib bo'lmaydi"¹. Muloqot jarayonida qo'llaniluvchi murojaat birliklari har bir tilda o'ziga xos va umumiy jihatlariga ega. Xususan, bolalarga oid murojaat birliklarini kommunikativ-pragmatik va sotsiolingvistik aspektda o'rganish tillarda ijtimoiy omillar

¹Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б.35-36.

kombinatsiyasining xilma-xilligi va alohida soʻzlardan foydalanish xususiyatlarini ochib beradi.

Ushbu dissertatsiyada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining oʻttiz yilligini keng nishonlash toʻgʻrisida”gi qarorlar va sohaga tegishli qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi “davlat tilining xalqaro miqyosdagi oʻrni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollari belgilash”² va belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlanishida innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon va oʻzbek tilshunosligida murojaat birliklarining sotsiolingvistik, kommunikativ-pragmatik, psixolingvistik, lingvokulturologik va chogʻishtirma tadqiqiga qaratilgan koʻplab ilmiy ishlar mavjud. Rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, N.S.Valgina, A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy, V.P.Pronichyev, I.M.Shatalova, L.K.Dmitriyevlar³ murojaat birliklarini tilning faqat sintaktik tizimi tarkibiy qismi sifatida belgilagan boʻlsalar, V.K.Kuzmichyeva, L.P.Rijova, I.M.Naumovalarning tadqiqotida murojaatlar funksional jihatdan tadqiq etilgan⁴. N.I.Formanovskaya murojaatlarni nutq odobi bilan bogʻliq holda olib, nutqiy aloqa vaqtida adresatga qaratilgan oʻziga xos

²Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4561730>.

³Виноградов В.В. Стилистика: теория поэтической речи. Поэтика. – М.: АН СССР, 1963; Валгина Н. С. Современный русский язык: Синтаксис: Учебник. – 4-е изд., испр. – М.: Высшая школа, 2003; Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – М.: ЛКИ, 2015; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Языки славянской культуры, 2001; Проничев В.П. Синтаксис обращения (на материале русского и сербохорватского языков). – Ленинград: ЛГУ, 1971; Шаталова И.М. Формы и функции обращений в современном русском языке: Автореф. дисс... канд.филол.наук. – Минск, 1979; Дмитриева Л.К. Обращение и вводный компонент. – Ленинград: Лениздат, 1976.

⁴Кузьмичёва В.К. К вопросу об интонационной структуре обращения в современном русском языке: Автореф. дисс... канд.филол.наук. – Киев, 1964; Рыжова Л.П. Обращение как компонент коммуникативного акта: Автореф. дисс... канд.филол.наук. – М., 1982; Наумова И.М. Статус обращения в поэтической речи XXI века: на материале текстов А.С.Пушкина, М.Ю.Лермонтова, А.А.Фета, Ф.И.Тютчева, Е.А.Баратынского: Автореф. дисс... канд.филол.наук. – Белгород, 2000.

kommunikativ birlik sifatida⁵, V.E.Goldin esa murojaat birliklarining ifodalanish shakllarini o‘rgangan⁶.

G‘arbda murojaatlarni o‘rganish ancha erta, ya’ni ritorik nazariyotchilarning asarlaridan boshlangan. Ingliz, nemis va slavyan tilshunosligida ham “murojaat” va “murojaat birliklari” tadqiq etilgan⁷. Ko‘plab tadqiqotchilar nutqiy etiketni tadqiq etish davomida murojaat birliklarini o‘rganib, bu shakllarni mulqot o‘rnatishning asosiy vositasi deb belgilaganlar⁸.

O‘zbek tilshunosligida murojaat “undalma” termini ostida A.G‘ulomov⁹, A.R.Sayfullayevlarning¹⁰ tadqiqotlaridan boshlangan. S.Mo‘minov, Sh.Iskandarovalar¹¹ murojaatlarni mulqot xulqi va nutq odobi sifatida o‘rgangan. Z.Akbarovanning tadqiqotida murojaatlar undalmadan farqlanib, murojaat shakllarining ekstralingvistik va psixolingvistik vazifalariga alohida e’tibor qaratilgan¹². Bundan tashqari, N.Ahmedova o‘zbek tilida murojaat birliklarining semantik-konnotativ xususiyatlarini¹³, Y.Seytjanov ingliz va o‘zbek tillaridagi undalmalarni¹⁴, D.Ashirbayeva koreys va o‘zbek diskursida murojaat birliklarining qiyosiy¹⁵, R.Ravshanova o‘zbek tilidagi institutsional va spontan diskursda murojaatlarning struktur, vazifaviy, kommunikativ-pragmatik tabiatini tadqiq etgan¹⁶.

Jahon tilshunosligida murojaatlar va uni ifodalovchi birliklar doirasidagi tadqiqotlar grammatik, sotsiolingvistik, qiyosiy, lingvokulturologik, leksikografik aspektida bajarilgan bo‘lishiga qaramay, bolalarga oid murojaat birliklari va ularning lisoniy voqealanishiga xos xususiyatlar hamda bu birliklarning lug‘aviy, gender, milliy, ijtimoiy tabiati monografik o‘rganilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot dolzarblik kasb etadi.

⁵Формановская Н. И. Обращение // Русский язык в школе. – 1994. № 3. – С.84-88.

⁶Гольдин В. Е. Обращение: теоретические проблемы. – Саратов: Саратовский ун-т, 1987. – С.114-115.

⁷Brown R., Ford M. Address in American English // Journal of Abnormal and Social Psychology, 62. – 1961. – P.375-385; Poyton C. Terms of Address in Australian English // Australian English – St. Lucia. – P.55-69; Slobin D.I., Miller S.H., Porter L.W. Forms of Address and Social Relations in a Business Organization // Journal of Personality and Social Psychology, 1968. – №8. – P.289-293; Paulston Ch. B. Pronouns of Address in Swedish: Social class, Semantics and Changing System Texts // Language in Society. – London, 1974. Vol.5 №3. – P.359-386; Stone G. Address in Slavic Languages. – SEER. 1977. Vol. 55. – №4. – P.491-505; Wdoton A.J. Children’s use of address terms. Audit-child conversation. – New York, 1981. – P.142-158.

⁸Braun Friederike. Terms of Address: Problems of patterns and usage in various language and cultures // F.Braun. – Berlin-New York; Amsterdam: Mouton de Grueter, 1998. – P.14. <https://doi.org/10.1515/9783110848113>.

⁹Гуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б.150.

¹⁰Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундалмалар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.3.

¹¹Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лisonий хусусиятлари: Филол.фан. д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Исқандарова Ш.М. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 1994.

¹²Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007. – 122 б.

¹³Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик коннотатив тадқиқи: Филол.фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008. – 138 б.

¹⁴Сейтжанов Ж.Е. Инглиз ва ўзбек тилларида ундалманинг қиёсий тадқиқи: Филол.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2012.

¹⁵Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг қиёсий тадқиқи: Филол.фан.б. фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – 130 б.

¹⁶Равшанова Р.Р. Институционал ва спонтан нутқда мурожаат шакллари: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Навоий, 2022. – 133 б.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Lingvokulturologiyaning dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bolalarga oid murojaat birliklarining ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, struktur-semantik xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

til tizimida mavjud bolalarga oid murojaat birliklarini yig'ish va ularning xususiyatlarini ilmiy tahlil qilish;

bolalarga oid murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish;

bolalarga oid murojaat birliklarining ijtimoiy-kommunikativ vaziyat bilan bog'liq jihatlarini yoritish;

bolalarga oid murojaat birliklarini struktur-semantik va tematik jihatdan tasniflash;

alla matnlarida bolalarga oid murojaat birliklarining milliy-madaniy xususiyatlarini boshqa til madaniyati bilan birgalikda asoslash.

Tadqiqot obyekti sifatida badiiy matnlar, xalq og'zaki ijodi va so'zlashuv uslubidagi bolalarga oid murojaat ifodalovchi birliklar tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti bolalarga murojaatni ifodalovchi birliklarning ijtimoiy-kommunikativ, lingvokulturologik, struktur-semantik, funksional xususiyatlaridan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, diskursiv, funksional-semantik, assotsiativ, kognitiv, statistik hamda eksperimental tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bolalarga murojaat birliklarining til tizimida tutgan o'rni, bolalar bilan muloqot jarayonidagi shakllari hamda ularning muloqotni vaziyatga muvofiqlashtirish xususiyatini tahlil qilish asosida ushbu birliklarining ijtimoiy iyerarxiyadagi fundamental maqomi asoslangan;

bolalar bilan muloqotda qo'llanuvchi murojaat birliklarini funksional-semantik jihatdan o'rganish orqali ularning nutqiy vaziyatlarda ijtimoiy-madaniy va rasmiy aloqa sharoiti bilan bog'liq kommunikativ vazifalarni bajarishi hamda o'zida umuminsoniy qadriyatlar zaminida shakllangan milliy-madaniy xususiyatlarni ham aks ettirishi dalillangan;

bolalarga murojaat birliklari struktur-semantik va tematik jihatdan tasniflashi natijasida ushbu birliklar qarindoshlik va diniy, samoviy jism, jonzot, o'simlik, oziq-ovqat nomlari kabi mavzuiy guruhlariga ajratilib, ularning turli nutq vaziyatlariga mos tarzda qo'llanilishi aniqlangan;

turli tizimli tillardagi xalq og'zaki ijodining noyob namunasi bo'lgan alla va badiiy matnlarda bolalarga murojaat birliklarining funksional xususiyatlarini milliy-madaniy aspektda o'rganish orqali bolalarga murojaat birliklarining izohlanishi, nominativ, apellyativ, kommunikativ, fatik, konnotativ, emotiv, ijtimoiy-psixologik

va aksiologik vazifalari aniqlanib, farzand tarbiyasida an'anaviy va zamonaviy qadriyatli yondashuvlar muhimligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

murojaat birliklari, xususan, bolalarga nisbatan qo'llaniladigan murojaat birliklari tadqiqiga jahon va o'zbek tilshunosligidagi nazariy masalalar hamda turli tizimli tillar egalari milliy olam manzarasining qiyosiy tadqiqi orqali bolalarga murojaat birliklarining universal va unikal jihatlari bo'yicha muayyan xulosalarga kelingan;

tadqiqot natijalari o'zbek tilida bolalarga murojaat birliklarining lisoniy talqinini anglash, ayniqsa, mutolaa va tarjima jarayonlarini maqbullashtiruvchi algoritm sifatida shakllantirilgan;

xalq og'zaki ijodi namunalaridan bo'lgan alla, shuningdek, badiiy matnlarda qo'llanilgan bolalarga murojaat birliklari aksiologik modallik jihatidan tahlil qilinib, ushbu birliklar va ularning avloddan avlodga yetkazilishiga xizmat qilgan mazkur matnlar ham qadriyatlar sirasiga kirishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalarning izchilligi ularni dalillovchi ma'lumotlarning berilishida aniq, rasmiy ma'lumotlarga tayanilgani, bolalarga oid murojaat birliklarining tadqiqi masalasi aniq qo'yilgani, tanlangan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, to'plangan materiallar orqali asosli, ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi, jahon tilshunosligining zamonaviy, ilmiy konsepsiyalariga mosligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, o'zbek tilidagi bolalarga oid murojaat birliklarining kommunikativ-funksional hamda milliy-madaniy xususiyatlariga doir mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni to'ldiradi va kengaytiradi.

Tadqiqotning natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan magistratura mutaxassisligi va bakalavriat yo'nalishi uchun sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, kommunikativ tilshunoslik, madaniyatlararo muloqot, qiyosiy tilshunoslik, assotsiativ tilshunoslik fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish, faol hamda ikki tilli lug'atlar tuzish, ilmiy ma'ruzalar, maxsus kurs, seminarlarda foydalanish mumkinligida ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiyada erishilgan natijalar asosida:

turli tizimli tillardagi xalq og'zaki ijodining noyob namunasi bo'lgan alla va badiiy matnlarda bolalarga murojaat birliklarining funksional xususiyatlarini milliy-madaniy aspektda o'rganish orqali bolalarga murojaat birliklarining izohlanishi, nominativ, apellyativ, kommunikativ, fatik, konnotativ, emotiv, ijtimoiy-psixologik va aksiologik vazifalari aniqlanib, farzand tarbiyasida an'anaviy va zamonaviy qadriyatli yondashuvlar muhimligi isbotlangan xulosalardan 2012-2016-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot instituti FA-043429-raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" loyihasida foydalanilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2023-yil 21-iyuldagi 302/1-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur loyiha uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan va ilmiyligi ortgan;

bolalarga murojaat birliklari struktur-semantik va tematik jihatdan tasniflashi natijasida ushbu birliklar qarindoshlik va diniy, samoviy jism, jonzot, o‘simlik, oziq-ovqat nomlari kabi mavzuiy guruhlarga ajratilib, ularning turli nutq vaziyatlariga mos tarzda qo‘llanilishi aniqlangan xulosa va tavsiyalardan “EMI (English as a Medium of Instruction)” xalqaro loyiha doirasida foydalanilgan (Farg‘ona davlat universitetining 2023-yil 22-dekabrda 04-6455-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada chop etilgan “Teonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari” maqola materiallardan samarali va keng foydalanilgan;

bolalar bilan muloqotda qo‘llanuvchi murojaat birliklarini funksional-semantik jihatdan o‘rganish orqali ularning nutqiy vaziyatlarda ijtimoiy-madaniy va rasmiy aloqa sharoiti bilan bog‘liq kommunikativ vazifalarni bajarishi hamda o‘zida umuminsoniy qadriyatlar zaminida shakllangan milliy-madaniy xususiyatlarni ham aks ettirishi dalillangan xulosalaridan Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2022-2023-yillarda efirga uzatilgan “Yoshlar vaqti”, “Ma‘naviyat sarchashmasi”, “Olovjon va uning do‘stlari”, “Yoshlar kundaligi” ko‘rsatuvlarida keng foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi Farg‘ona viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 11-iyuldagi 01-02/146 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvlarning mazmuni milliy xususiyatlari uyg‘unligida boyishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza ko‘rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlardan 4 ta, xorijiy jurnallarda 3 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 145 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

“Zamonaviy lingvistik paradigmadagi murojaatning nazariy masalalari” deb nomlangan birinchi bobda murojaat va murojaat birliklari talqini hamda tadqiqi,

bolalarga murojaat birliklarining ijtimoiy iyerarxiyadagi oʻrni, murojaat birliklari tadqiqiga lingvokulturologik yondashuv masalalari kabi masalalar tahlilga tortilgan.

Jahon tilshunosligida murojaat birliklari antik davrlardan maʼlum. Murojaat birliklarini oʻrganishga qiziqish va ular haqidagi bahsli fikrlar, umumiy bilimlar va kishilarning nutqiy koʻnikmalardan kelib chiqqan holda ritorika, adabiyot fanlari doirasida paydo boʻldi. Eramizgacha boʻlgan davrlarda ham qadimgi antik davr tilshunoslari Kvintilian va Sitseron asarlarida uchraydigan murojaatlarning ifodalanishi toʻgʻrisidagi bahsli fikrlar bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda¹⁷.

Murojaat birliklari – tilshunoslikda biroz munozarali, hali toʻliq va har tomonlama tadqiq etishni talab etuvchi grammatik kategoriyadir.

Murojaat – bu muloqotning eng koʻp qoʻllaniluvchi birliklaridan biri boʻlib, u nutqiy muloqot jarayonida aloqa oʻrnatishning eng muhim vazifa bajaruvchisi etib belgilanganligi bilan tadqiqotchilarning diqqatini tortib kelmoqda. Biroq bu birlikning ilmiy nuqtayi nazari hozirgacha noaniq va u geterogen tabiatli unsur sifatida taʼriflanib kelinmoqda. Baʼzi tilshunoslar murojaat birliklarini faqat sintaktik tizimning bir qismi sifatida belgilaydilar. V.V.Vinogradov, N.S.Valgina, A.A.Shaxmatov, A.M.Peshkovskiy¹⁸ va boshqalarning tadqiqotlarida bu oʻz ifodasini topgan. Bundan tashqari, rus tilshunosligidagi mavjud lingvistik ensiklopedik lugʻatlarda “murojaat” termini “gapning grammatik jihatdan mustaqil va intonatsion jihatdan ajratilgan aʼzosi sifatida qaraladi hamda uning oʻziga xos vazifasi nutq qaratilgan shaxsni nomlashdir”, deya sharhlanadi¹⁹. Shu sababli uni oʻrganish hamisha olimlarning eʼtiborida boʻlib kelgan. Oʻzbek tilshunosligida “murojaat” turli terminlar bilan nomlanadi: *undalma*²⁰, *vokativ kategoriya*²¹, *vokativ soʻzlar*, *chaqiriq soʻz*, *chaqiriq forma*, *chaqiriq kelishik*, *undash kelishik murojaatlari*²², *murojaat shakllari*²³, *murojaat ifodalovchi vositalar*, *murojaatni ifodalovchi birliklar*, *murojaat soʻzlar*²⁴ kabi²⁵.

Murojaat birliklari til egalari ongida, nutq jarayonida va matnda “sodda” birlik sifatida, yaʼni doimiy qoʻllash uchun tayyor. Nutq akti doirasida esa adresantning holatini, adresatga munosabatini ifodalovchi lingvistik ibora hamdir. Ayni bir vaqtning oʻzida tilshunoslikda murojaat shakli gapning grammatik jihatdan mustaqil

¹⁷Квинтилиан М.Ф. Двенадцать книг риторических наставлений. – Санкт-Петербург: типография Императорской Российской Академии, 1834. – 483 с.

¹⁸Виноградов В. В. Стилистика: теория поэтической речи. Поэтика. – М.: АН СССР, 1963; Валгина Н. С. Современный русский язык: Синтаксис: Учебник. – 4-е изд., испр. – М.: Высшая школа, 2003; Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. – М.: ЛКИ, 2007; Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Языки славянской культуры, 2001.

¹⁹Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. В.Н. Ярцевой. – М., 1990 – [электронный ресурс].– Режим доступа: <http://tapemark.narod.ru/les>. (Дата обращения: 01.10.2022)

²⁰Ғулумов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили: Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – Б.150.

²¹Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972. – 162 б.

²²Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: Филол.фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008. – Б.12.

²³Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз...дисс. –Тошкент, 2007. – 122 б.

²⁴Ходжаева Н.Б. Ҳиндча мурожаат сўзлар таржимасининг лексик семантик хусусиятлари // Тошкент давлат Шарқшунослик институти Ёш олимлар кенгаши илмий семинари. – Тошкент, 2017.

²⁵Қодирова М. Тилшуносликда мурожаат бирликлари тадқиқи масаласи (ўзбек ва инглиз тиллари таҳлили асосида). – Термиз: ТерДУ нашр-матбаа нашриёти, 2022. – Б.13.

va sintaktik jihatdan ajratilgan komponenti yoki nutq qaratilayotgan shaxs va predmetni bildiruvchi anchayin murakkab lisoniy birlikdir. N.S.Valgina, D.E.Rozental va M.I.Fominalarning fikricha esa, murojaat “nutq qaratilgan shaxsni yoki obyektini nomlaydigan so‘z yoki so‘zlar birikmasidir”²⁶.

O‘tgan asrning 70-80-yillaridan boshlab tilshunoslikda pragmalingsvistikaning alohida yo‘nalish sifatida ajralib chiqishi bilan murojaat birliklari nutqdagi vazifasiga ko‘ra tadqiq etila boshlandi. Nutqiy akt nuqtayi nazaridan olib qaralganda, murojaat birliklariga ko‘pincha nutqiy aloqa jarayonining his-tuyg‘ularini ifodalovchi, apellyativ funktsiya bajaruvchi vosita sifatida qaralgan.

A.Peshkovskiy murojaatlarning sintaktik tabiatini quyidagicha izohlaydi: “... uning gapdagi asosiy roli ta’sir etish... gap tarkibidagi o‘rni qanchalik muhim va keng tarqalgan bo‘lmasin, o‘zi turgan gapning boshqa bo‘laklari bilan grammatik bog‘lanish imkonini bermaydi va gap tarkibidagi boshqa so‘zlarga grammatik aloqador bo‘lmaydi”²⁷.

Murojaat birliklarini o‘rganish, o‘zbek tilshunosligida grammatik kategoriyalarni o‘rganishga bag‘ishlangan ishlardan boshlanib, bu ishlarda undalmaning grammatik aspektida o‘rganilishi zarur ekanligi ta’kidlangan²⁸.

Tadqiqotchi M.Qodirovaning ta’kidlashicha, tilshunoslikda undalma va uning xususiyatlari yuzasidan ko‘plab ilmiy ishlar bajarilgan, ularda asosan, undalmaning lingvistik xususiyati ochib berilgan. O‘zbek tilshunosligida undalma haqidagi dastlabki fikrlar A.G‘ulomov asarlarida uchraydi²⁹.

A.R.Sayfullayevning 1968-yilda nashr qilingan “Hozirgi o‘zbek tilida undalma” deb nomlangan tadqiqotida rus tilshunos olimlari M.A.Terentyev, V.Nalivkin, A.Alekseyev, A.Vishnegorskiylar o‘zbek tilining elementar grammatikasi haqidagi qo‘llanmalarida o‘zbek tilidagi grammatik jihatdan bog‘lanmagan so‘zlar haqida nazariy fikrlar aytilmagani, bu borada misollar bilan chegaralanganligi ta’kidlanadi: “... yuqorida tilga olingan bu qo‘llanmalarining ba’zilarida gap bo‘laklari bilan grammatik jihatdan bog‘lanmagan so‘zlarga ta’rif va misol berish bilan kifoyalanilgan, ularning o‘ziga xos xususiyatlari esa keng yoritilmagan, ba’zilarida esa bu haqda hatto fikr berilmagan”³⁰.

XX asrning so‘nggi yillariga qadar o‘zbek tilshunosligida undalmalar tadqiqiga doir olib borilgan ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning aksariyatida rus tilshunosligidagi “*обращение*” termini o‘zbek tilidagi “undalma” terminiga emas, balki “murojaat birliklari yoki shakllariga to‘g‘ri kelishiga e’tibor qaratilmaydi.

Z.Akbarova o‘zining dissertatsiya ishida murojaat va undalmani farqlab, “sof lingvistik tahlilda, gap haqidagi grammatik ta’limotda tilning barcha struktural

²⁶Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык: Учебник / Под редакцией Н.С.Валгиной. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Логос, 2002. – С.411.

²⁷Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – С.408.

²⁸Батманов И.А, Вильнер А.Н, Ўзбек тили дарслиги. – Тошкент, 1933; Батманов И.А. Очерки синтаксиса узбекского языка. – Тошкент, 1936; М. Шамсиев, Ўзбек тили дарслиги. Грамматика ва имло, 11 қисм – Тошкент, 1933; Решетов В. В. Ўзбек тили грамматикаси, Ўзбек тили ўқитувчилари учун қўлланма, II том. – Тошкент, 1934; Саидов Н. Ўзбек тили грамматикаси, II қисм. – Тошкент, 1936.

²⁹Қодирова М. Тилшуносликда мурожаат бирликлари тадқиқи масаласи (ўзбек ва инглиз тиллари таҳлили асосида). – Термиз:ТерДУ нашр-матбаа нашриёти, 2022. – Б.13.

³⁰Сайфуллаев А.Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида ундамалар. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.3.

elementlariga til birligi sifatida qaraladi va shu jihatdan o'rganiladi. Undalma grammatik aspektda o'rganishning mahsuli sifatidagi lingvistik atamadir. Murojaat esa nutq bilan bog'lanadi, u harakatdagi hodisani ataydi, hodisani harakatga bog'lab izohlaydi. U tashqi lingvistika uchun obyekt" ekanligini ta'kidlaydi³¹.

N.Sh.Ahmedova murojaat birliklarining mazmuniy tuzilishi va ularda konnotatsiyaning ifodalanishini³², D.Ashirbayeva koreys va o'zbek diskursidagi murojaat birliklarini qiyosiy o'rgangan bo'lsa,³³ Z.Akbarova esa o'z dissertatsiya ishida o'zbek tilidagi murojaat shakllarining lisoniy tadqiqini olib borgan³⁴. J.Seytjanov o'z tadqiqotida Z.Akbarovanning tadqiqot ishiga munosabat bildirib, ishda undalmaning maqomi, vazifalari, yondosh gap bilan aloqalari tahlili qamrab olinmagan deya ta'kidlaydi³⁵.

So'nggi yillarda esa murojaat birliklarining turli aspektdagi tadqiqiga bag'ishlab olib borilgan ishlarda ularning psixolingvistik va pragmatik xususiyatlari o'rganildi. Pragmatik omilga nisbatan bir qator tadqiqotchilar³⁶ murojaat shaklining qo'llanishini boshqaruvchi universal, tillararo qoidalarni aniqlashga harakat qildilar³⁷.

Murojaat birliklarining pragmatik imkoniyatlarini tavsiflab, N.D.Arutyunova, I.N.Borisova, V.V.Dementyev, Z.R.Doxova, G.A.Zolotova, Ye.V.Paduchyeva, L.P.Ryjova, N.I.Formanovskaya va boshqa tadqiqotchilar so'zlashuv nutqidagi ushbu lisoniy birlikka xos bo'lgan apellyativ vazifa badiiy nutqdagi baholovchi vazifasi bilan uyg'unlashganligini ta'kidlaydilar.

Qayd etish zarurki, o'zbek va rus tilshunosligida murojaatlar keng o'rganilganligiga qaramay, bolalarga oid murojaat birliklari har ikkala tilda ham alohida monografik tadqiq etilmagan.

Bolalarga oid murojaat birliklarini kommunikativ-pragmatik va sotsiolingvistik aspektda o'rganish rus va o'zbek tilida ijtimoiy omillar kombinatsiyasining xilma-xilligi va alohida so'zlardan foydalanish xususiyatlarini o'z ichiga olishini ko'rsatib beradi.

Murojaat birliklari kommunikativ vaziyatda ishtirokchilarining ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy roli, shaxslararo munosabatlardagi muhim belgilarini inobatga olgan holda tanlanadi. Bundan tashqari, murojaat birliklari kommunikativ aloqa

³¹ Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 2007. – Б.23.

³² Аҳмедова Н.Ш. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик коннотатив тадқиқи: Филол.фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008. – 138 б.

³³ Аширбаева Д.Р. Корейс ва ўзбек дискурсида мурожаат бирликларининг кийсий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс. док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – 144 б.

³⁴ Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз...дисс.– Тошкент, 2007 – 127 б.

³⁵ Сейтжанов Ж.Е. Инглиз ва ўзбек тилларида ундалманинг кийсий тадқиқи. Филол.фан. номз...дисс.автореп. – Тошкент, 2012. – Б.3-4.

³⁶ Ditrich W. H., Johansen T. & Kulinskaya E. Norms and situational rules of address in English and Norwegian speakers // Journal of Pragmatics, 43(15), 2011. – P.3807–3821. – <http://doi:10.1016/j.pragma.2011.09.006>; Brown R. & Gilman A. – P.253-275; Wood L.A. & Kroger R. O. Politeness and forms of address// Journal of Language and Social Psychology, 10(3), 1991. – P.145-168 – <https://doi:10.1177/0261927X91103001>.

³⁷ Қодирова М. Тилшуносликда мурожаат бирликлари тадқиқи масаласи (ўзбек ва инглиз тиллари таҳлили асосида). – Термиз: ТерДУ нашр-матбаа нашриёти, 2022. – Б.48.

ishtirokchilarining o‘zaro tanishlik darajasi, ularning bir-biriga nisbatan iyerarxik pozitsiyasi ta’sir qiladi.

Murojaat shakli fikr yuritish bilan, tafakkur bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-mantiqiy hodisa sifatida sotsiolingvistikaning obyekti hisoblanadi. Nutqiy aktning sotsiolingvistik aspekti til va nutq, ularning o‘zaro aloqasi ijtimoiyligi singari masalalar bilan uzviy bog‘liqdir³⁸.

So‘nggi yillarda tadqiqotchilarni sotsiolingvistik aspektda olib borilayotgan tadqiqot ishlari, muayyan jamiyatda til vositalarini amaliy qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari qiziqirmoqda va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar orasida murojaat birliklariga ham turlicha ta’riflar berilgan. Tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi ushbu muammolarning turli tomonlarini o‘rganish zaruriyatini tug‘diradi. Shubhasiz, til va jamiyat o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlik tilning ijtimoiy xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun tilshunoslik va sotsiologiyaning dolzarb masalalari sotsiolingvistik yo‘nalishda yangi tadqiqot mavzularining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Tilshunoslikda murojaat birliklarini sotsiolingvistik yondashuv yordamida o‘rganishni ko‘rib chiqishda tilshunoslar tomonidan murojaatlar pragmatikasiga yoki to‘g‘ri tanlash qoidalariga, yoki moslik qoidalari va murojaatlar sintagmatikasiga murojaat qilish tavsiya etiladi.

M.Irisqulovning fikriga ko‘ra, har bir jamiyat a‘zosi tilning sotsiolingvistik qoidalarini o‘zlashtirib olishi kerak. Gapiruvchining til malakasi har bir muayyan vaziyatda til vositalaridan mazkur shart-sharoitga to‘g‘ri keladiganlarini tanlay bilishga qarab belgilanadi³⁹.

Kommunikantlarning jinsi, ya’ni murojaat qiluvchi va adresat jinsi ham murojaat birliklarini tanlashda farqlashga e’tibor qaratishni talab qiladi. Bu, albatta, deyarli barcha tillar uchun muhim. Shu jihatdan olib qaralganda, erkaklar va ayollarga qaratilgan murojaatlar o‘rtasida keskin farqlanishlar kuzatiladi.

Tilshunoslikda gender lingvistikasi bo‘yicha tadqiqotlar XX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida jadal rivojlandi. Tillarning gender xususiyatlari muammosi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ikki jins vakillarining tildan foydalanishdagi farqlari sifatdan ko‘ra miqdoriy jihatdan ko‘proqdir. Masalan, “o‘rtoq boshliq”, “shef”, “xo‘jayin” kabi murojaat birliklari asosan erkaklar tomonidan erkaklarga nisbatan qo‘llaniladi. “Azizim”, “begim” kabi murojaat birliklari esa ayollar nutqidagina erkaklarga nisbatan qo‘llaniladi.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda murojaat birliklarining nutq jarayonidagi ifoda imkoniyatlarini ochib berish hamda ularning mazmuniy tuzilishini belgilashda nutqiy vaziyat va muloqot ishtirokchilarining nutq obyekti haqidagi umumiy ma’lumotlari va shu tildan foydalanish ko‘nikmalari kabi omillar muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Murojaat birliklarini qo‘llashda kommunikativ vaziyat kim kimga, nima haqida, nima uchun,

³⁸Абдурахмонова Н.З, Холиёрова Г.Ф. Социоллингвистик аспектда ўзбек ва турк тилларида мурожаат шаклларининг паралел корпусда ифодаланиши // Academic Research in Educational Sciences 2022. – P.128-136. (Мурожаат санаси: 12.01.2023).

³⁹Ирискулов М. Тилшуносликка кириш – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б.165.

qachon, qanday sharoitda, qanday vosita bilan so‘zlashishni o‘z ichiga oladi. O‘zbek tilida tarixan qadimgi davrlarda shoh yoki hukmdorning o‘g‘il farzandiga nisbatan “*shahzodam*”, qiz farzandiga nisbatan “*malikam*” murojaati qo‘llanilishi kuzatiladi. Bu kabi murojaat birliklari ijtimoiy-madaniy va kommunikativ vazifalarni hal etuvchi murojaatlarning asosiy guruhlaridan biriga taalluqli bo‘ladi.

Rasmiy muloqot jarayonlarida murojaat birliklaridan o‘rinli foydalanish, shaxsning jamiyatdagi mavqeyiga ko‘ra, muloqot qiluvchilar o‘rtasida aloqa o‘rnatish hamda davom ettirish vazifasini bajargan. Shuningdek, kichik yoshdagi o‘quvchilarning lisoniy ongida xushmuomalalik kategoriyasidagi o‘ziga xosliklarni asta-sekinlik bilan o‘zlashtirib borilganligini ko‘rish mumkin. Rus tilida so‘zlashuvchilar olam lisoniy manzarasida “axloqiy fazilatlar” komponenti tarkibida xushmuomalalik va murojaat birliklaridan foydalana olish malakasi alohida ahamiyatga ega.

O‘zbek tilida bolalarga ta’lim jarayoni bilan bog‘liq rasmiy aloqa sharoitida *o‘quvchilar, qadrli o‘quvchilar, aziz o‘quvchilar, hurmatli ta’lim oluvchilar* deb murojaat qilinadi. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga *qadrli bolajonlar, shirintoy bolajonlar, jajji bolajonlar* murojaati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ishlatiladi.

Til birliklarini, jumladan, murojaat birliklarini sotsiolingvistik yondashuv asosida tadqiq etish jamiyatning ma’lum bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishga, shuningdek, tilning davriy xususiyatini, tadrijiy taraqqiyotida tilga jamiyat ta’siri nechog‘lik ekanini tahlil qilishga imkoniyat beradi. Shu ma’noda murojaatlarning uzluksiz ravishda sotsiolingvistik tadqiqini olib borish, shuningdek, lisoniy shakllarning ijtimoiy ahamiyati, ularning turli qatlam va guruhlarga mansub odamlar nutqida qo‘llanilishini o‘rganish muammosi ham sotsiolingvistikada dolzarb sanaladi.

Til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish muammosi bizningcha, “madaniyat” tushunchasining ko‘p qirrali va mavhumligi bilan bog‘liq. Har ikkala yirik tushunchalarning talqini ko‘p jihatdan ularning noaniqligi va murakkabligi bilan tavsiflanadi. Bugungi kungacha madaniyat tushunchasiga turli ta’riflar berilgan bo‘lib, ularning tub ma’nosida aniq ijtimoiy hodisa va voqealar, jarayonlar, inson mehnati hamda tafakkurning mahsuli bo‘lgan qator durdonalar yotadi. Keng ma’noda madaniyat ijtimoiy hodisadir⁴⁰.

Y.V.Melnikovaning ta’kidicha, til xalqning ham moddiy, ham ma’naviy madaniyatini ifodalashning o‘ziga xos shakligina bo‘lib qolmay, uning “dirijyor”i sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniy tajribalar tilda belgi shaklida qayd qilinadi. Madaniyatni tarjima qilish tilning murakkab semiotik tizimi orqali amalga oshiriladi⁴¹.

Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya XX asrning so‘nggi choragida shakllana boshladi⁴². Ko‘plab

⁴⁰Маданият тушунчаси, мазмуни ва моҳияти. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/13469-2021-06-30-09-39-28> (Мурожаат санаси: 28.03.2023).

⁴¹Мельникова Е.В. Культура и традиции народов мира. – М.: АНО Диалог культуры, 2009. – С.38.

⁴²Худойберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол.фан. док (DSc) ...дисс.автореф. – Тошкент, 2015. – Б.17.

tilshunos olimlar lingvokulturologiya nazariyasining ildizi V. fon. Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Termin sifatida esa lingvokulturologiya atamasi V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda birinchi marta qo'llanilgan⁴³.

Keyinchalik tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasi V.V.Vorobyev⁴⁴, N.D. Arutyunova⁴⁵, Y.S. Stepanova, V.T. Klokova, V.A. Maslova, V.I.Karasik, V.N.Teliya, N.F.Alefirenko⁴⁶, V.Avramova⁴⁷, I.G.Olshanskiy, V.M.Shakleina⁴⁸, Y.E.Yurkova va Y.N.Zinovyevalar⁴⁹ tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar bilan bog'liq holda asoslandi⁵⁰. So'nggi yillarda esa lingvokulturologiya tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Til birliklarini o'rganishning lingvokulturologik paradigmasi "inson", ya'ni odamlar guruhining faoliyati va mavjudligi jarayonlari hamda ixcham geografik makon – "mintaqa", ya'ni hududiy lingvomadaniy makon doirasidagi muhit bilan o'zaro munosabatda yaratilgan madaniyatni o'rganishni o'z ichiga oladi⁵¹.

Lingvokulturologik tushunchalar paradigmasi mintaqaviy o'ziga xosliklarga ega bo'lgan etnolingvistik madaniyatlarning to'plami sifatida tashkil etilgan "inson – tili – madaniyati" sohasining tahlili va talqiniga hamda deystik birligiga asoslanadi. Bundan tashqari, ijtimoiy lingvistik paradigmani o'rganishning ko'plab predmetlari bilvosita til va madaniyat bilan ham bog'liqdir. Bunday holatda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda urg'u lingvokulturologiyaning konseptual "tekisligi"ga ko'chiriladi.

Ushbu tushunchalar paradigmasi lingvokulturema, madaniyat tili, madaniy matn, submadaniyat, pretsedent nomlar madaniyati, madaniy universaliya va madaniy kod, madaniy meros, madaniy an'ana, madaniy fon, madaniy sema, madaniy jarayon hamda lingvomadaniy paradigma, madaniy konnotatsiya, mentallik kabilarni qamrab oladi. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosini hal etish uchun ular dinamikasini tahlil qilish imkonini beradigan yuqoridagi kabi tushunchalar apparatini yaratish kerak.

Bolalarga oid murojaat birliklarida turli madaniy kodlar faol qo'llaniladi. Masalan allalar matnida, qushlar, hayvonlar va o'simliklarning metaforik nomi faol qo'llaniladi.

⁴³Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты: Монография. – М.: Языки русской школы, 1996. – 286 с.

⁴⁴Воробьев В.В. Лингвокультурология: Монография. – М.: РУДН, 2008. – 340 с.

⁴⁵Арутюнова Н.Д. Образ: (Опыт концептуального анализа) // Референция и проблемы текстообразования. – М.: Институт языкознания АН СССР, 1988. – 238 с.

⁴⁶Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка: учебное пособие. – М.: Флинта-Наука, 2010. – 224 с.

⁴⁷Аврамова В. Лингвокультурология – Шумен: Епископ Константин Преславски, 2007. – 243 с.

⁴⁸Шаклеин В.М. Лингвокультурология: традиции и инновации. – М.: Флинта, 2012. – 301 с.

⁴⁹Зиновьева Е.И., Юрков Е.Е. Лингвокультурология. Теория и практика: учебное пособие. – Санкт-Петербург: МИРС, 2009. – 292 с.

⁵⁰Ольшанский И.Г. Лингвокультурология в конце XX в: итоги, тенденции, перспективы. <https://cyberleninka.ru/article/n/lingvokulturologiya-v-kontse-hh-v-itogi-tendentsii-perspektivy/pdf> (Дата обращения: 12.01.2023).

⁵¹Герда А.С., Лебедева Г.С. Основания регионалистики: Формирование и эволюция историко-культурных зон Европейской России. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 1999. – 389 с.

Gulim-a, ona gulim... Bog'da uzumning g'o'rasi... Tog'dagi gulim... Uydagi bulbulim... Alla qo'zim, alla... Toychog'im alla..., Yuragida o'tibor alla, Sherim bolam alla-yo, alla kabi madaniy kodlar orqali farzandga murojaat qiladi.

Madaniy semalar so'zdan ko'ra kichikroq va universal semantik birliklar hisoblanadi. Masalan, *qiy, qo'ra, otar* so'zlaridagi madaniy semalarni ajratish mumkin: *qiy* – qo'y qo'rasida yoqimsiz hid chiqaruvchi va qo'ylarning go'ngidan hosil bo'lgan qattiq jism. *Qo'ra* – faqat qo'ylarni qamab boqish uchun taxtdan qurilgan joy. *Otar* – yaylovda boqiladigan qo'ylarning katta suruvi, podasiga nisbatan aytiladi.

Madaniy semalar ham ma'lum bir lingvomadaniyat vakillari uchungina tushunarli birliklardir. Turli lingvomadaniyatlarda bir xil shaklda mavjud madaniy semalar turli o'ziga xosliklarga ega. Masalan, *samovar* madaniy semasi rus lingvomadaniyatida ichida olov qutisi bo'lgan choy ichish uchun idish bo'lsa, o'zbek lingvomadaniyatida do'stlar, mahalladoshlar bilan osh-ovqat yeyish uchun to'planiladigan joy. – *O'g'lim, otangga aytgin, kechga samovarga chiqamiz mahalladagilar bilan.* (So'zlashuv nutqidan)

Madaniy fon ijtimoiy hayot hodisalari va tarixiy voqealarni anglatuvchi nominativ birliklar (so'zlar va frazeologik birliklar)ning o'ziga xos xususiyatining tavsiflanishi. *Otam zamonning ko'ylagi* (juda eski), *oftobda qatiq yalashgan dugonam* (qadrdon) kabi.

Bu ikki turda tavsiflangan madaniy ma'lumotlar dennotatda mahalliyashtirilgan bo'lib, ular tilshunoslik va lingvoo'lkashunoslik tomonidan ancha keng o'rganilgan. Shunday qilib, lingvomadaniy paradigma – bu etnik ijtimoiy, ilmiy va boshqalarni o'zida aks ettiruvchi til birliklarining to'plamidir.

Milliy madaniyatga munosabatni shakllantiruvchi xalqning ijtimoiy xotirasi xalq maqollarida, iboralarida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, har qanday til lisoniy birliklarining milliy xususiyati madaniy konnotatsiyalarni yuzaga keltiradi. Bunday konnotatsiyalar xususiy lingvistik manbalarga tegishlilik bilan biror bir xalq madaniyati darajasining til belgilari orqali ifodalanganligini ko'rsatadi. Chunki milliy o'z-o'zini anglashning stereotiplari va muayyan vaziyatning milliy-madaniy g'oyasi ham asosan so'z bilan ifodalanadi.

Murojaat ifodalovchi birliklarning jamiyat hayotidagi tarixiy o'zgarishlarga yuqori sezgirligi, til tashuvchilarining foydalanish chastotasi ko'rsatkichi, milliy va madaniy belgilarga ega ekanligi, o'zida ma'lum xalq mentalitetini aks ettirishi bu birliklarning lingvokulturologik jihatdan tadqiq etishga asos bo'la oladi.

Tadqiqotning **“Bolalarga murojaat birliklari struktural-semantik va funksional xususiyatlarining lingvokulturologik tadqiqi”** nomli ikkinchi bobida bolalarga oid murojaat birliklarining semantik tasnifi, qarindoshlik atamaları, jonzot nomlari, diniy nomlar, o'simlik nomlari, samoviy jism nomlari va oziq-ovqat nomlari bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari, shuningdek, bolalarga oid murojaat birliklarining struktural tabiatiga doir izlanishlar olib borilgan.

Olamdagi barcha narsalar til tashuvchilari lisoniy ongida ma'lum bir tasniflar asosida idrok etiladi. Til birliklari uchun yaratiladigan ko'plab lug'atlar ham ana shu tasniflar natijasida yuzaga keladi.

Murojaat birliklarining tasnifi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan. Jumladan, N.Ahmedovaning tadqiqot ishida murojaat birliklarining joy nomi, millati, bajarayotgan vazifasi, amal-mansabi, kasb-hunari, qarindoshlik munosabati, yoshi, ism-familiyasi, dini bilan bog‘liq guruhlari, ularning o‘zaro farqli va o‘xshash tomonlari, valentlik xususiyati kabi masalalar atroflicha tahlil qilingan⁵².

O‘zbek oila diskursida ota-onalar tomonidan bolalarga qo‘llaniladigan murojaat birliklari mutlaqo erkindir. Biroq kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, qarindoshlik giponimlarini murojaat birligi sifatida kichik yoshdagi bolalarga nisbatan katta yoshdagi bolalarga qo‘llash ko‘proq ustunlik qiladi.

Qarindoshlik atamaları eng qadimgi davrlardan hozirgi davrgacha qator o‘zgarishlarga uchragan holda qo‘llanilmoqda. Tadqiqotchi N.Jalilovaga ko‘ra, O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari tilida qayd etilgan *ata, ada, ana, aba, acha, og‘ul, qyz, aqa, sinil, ini, er, qatun, yigit, qaryndash* singari qon qarindoshlik terminlari hozirgi turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tili va shevalarida ham u yoki bu fonetik o‘zgarishga uchragan holda faol qo‘llanib kelmoqda⁵³. Ko‘rish mumkinki, o‘zbek tilida oila diskursida bolalarga nisbatan faol qo‘llaniladigan *o‘g‘lim, qizim* murojaat birliklari sezilarli o‘zgarishlarga uchramagan. Har ikkala qarindoshlik giponimlari o‘zbek adabiy tili va uning shevalarida bolalarga nisbatan faol murojaat birliklari sifatida qo‘llanilmoqda. Birgina Farg‘ona shevasining Qo‘qon hududi shevasida *o‘g‘lim* murojaat birligining *ulim* tarzida qo‘llanilishi ham kuzatiladi.

O‘zbek tilida hozirda rus tili ta’sirida bolalarga qo‘llaniladigan murojaat birliklariga erkalashning ruscha shakllarini qo‘shish orqali murojaat qilish ham ancha faol. Jumladan, *Asalka (Asal), Shirinka (Shirin), Temurchik (Temur), Islomchik (Islom)* kabi antroponim murojaat birliklari oila a’zolari tomonidan o‘g‘il yoki qiz farzandga nisbatan qo‘llanilganda erkalash hamda yaqinlik ma’nolarini ifodalab keladi.

O‘zbeklar oila diskursida ota-onaning qiz farzandiga murojaatida o‘z mehrini ifodalash uchun *qizcham, oppoq qizim, qizalog‘im, qizginam, qizjonim, ona qizim* kabi birliklarni qo‘llaydi. O‘g‘il bolalarga nisbatan esa *o‘g‘lim* murojaat birligi *o‘g‘lonim, jon o‘g‘lim, o‘g‘ilginam* tarzida qo‘llaniladi. Qarindoshlik giponimlari tadqiq etilayotgan tillarda ota-onalar tomonidan qo‘llanilganda, ko‘proq erkalash munosabatini ifodalaydi.

Har bir til leksik qatlami tarkibida hayvon nomlari bilan ikkilamchi nomlash borligi kuzatiladi. Assotsiativ tafakkurga xos zoonimlar bilan nomlash insoniyat tarixiy evolyutsiyasining dastlabki davrlaridan boshlangan deyish mumkin. Tilshunoslik fanida zoonimlarni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar bor. Ana shu tadqiqotlar doirasida bir qator tillarda zoolingvistika nazariyasi shakllantirildi. Zoonimlar antropologik xususiyatga ega bo‘lib, shaxslarga ma’lum

